



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

12. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Tafsiri hilol" 5-jild. –T: "Hilol nashr". 2023. 642-b.
13. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Nubuvvat va risolat kitobi. - T.: Movarounnahr, 2006. B-194.
14. <https://siyrat.uz/maqola/10415>

BADIIY MATN VA TASVIRIY VOSITALAR MUTANOSIBLIGI

Qurbonov Abdulhamid Abduqayumovich,
University of Business and Science dotsenti, RhD,
e-mail: akurbanov-57@mail.ru
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/OXYQ6909

Annotatsiya: Maqolada Navoiy asarlarini o'qish va nashr etish chog'ida yo'l qo'yilgan ayrim xatolar haqida fikr yuritilgan. Shoir asarlarida, bir tarafdian, xilma-xil tasviriy vositalar, ikkinchi tarafdian esa, g'oyaviy mazmun va muayyan istilohiy iboralar o'rtasida mustahkam va barqaror aloqadorlik mavjud bo'lib. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashganda xatoliklar, ayniqsa, ko'zga yaqqolroq tashlanadi. Ayrim bayt va misralarning mazmunini to'g'rilashda bu jihatlar hisobga olingan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, bayt, tasviriy vositalar, tanosub, badiiy mantiq, badiiy timsol.

BALANCE OF ARTISTIC TEXT AND ILLUSTRATIVE MEANS

Abstract. This article examines the errors encountered in the reading and publication of Alisher Navoi's works. It highlights the strong and consistent connections within his works, particularly between the various visual elements and the ideological content, as well as their relationship to specific idiomatic expressions. When analyzed from this perspective, the mistakes in interpretation become particularly evident. The article further addresses the corrections made to the content of certain verses, taking into account these critical aspects to ensure a more accurate representation of the poet's intended meaning.

Keywords: Alisher Navoi, verse, visual means, proportion, artistic logic, artistic symbol.

Mukammal matn yaratish behad mashaqqatli ish ekanligi ma'lum. Uni tom ma'noda igna bilan quduq qazishga o'xshatish mumkin: tadqiqotchi muayyan asarning har bayti va har satrini, har bir so'z va hatto har bir harfini sinchiklab o'rganishi, ularni turli nusxalar bilan qiyoslashi, bir emas, o'nlab variantlar ichidan eng ishonchlisini tanlab olishi zarur. Bu, albatta o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. Buning uchun arab, fors va eski o'zbek tillari, arab yozuvi va uning turlarini chuqur bilish, adabiyot, tarix fanlarini puxta o'zlashtirish, kitobatchilik usul va qoidalaridan yaxshi xabardor bo'lish lozim. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" devonining H.Sulaymon va "Xamsa" dostonlarining P.Shamsiyev tomonidan yaratilgan tanqidiy matni ana shunday og'ir mehnat, chuqur bilim va sinchkovlik samarasidir. Shoir lirik va epik merosini o'z ichiga olgan bu muhtasham obidalar tanqidiy matn asosida 1959, 1960-yillarda alohida kitoblar holida chop etilib, jamoatchilik hukmiga havola qilindi. "Xazoyin ul-maoniy" keyinchalik F.Sulaymonova, "Xamsa" dostonlari esa A.Hayitmetov, S.G'aniyeva, I.Haqqul va boshqalar tomonidan qayta tayyorlanib, 1987-2003 yillarda izohlar bilan chop etilgan "Mukammal asarlar to'plami" (MAT) ga kiritildi. Keyingi yillarda ham bu

harakat shu va boshqa olimlar tomonidan davom ettirilib, "Xazoyin ul-maoniy" va "Xamsa" "To'la asarlar to'plami"dan (TAT, 2011) joy oldi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, MAT va TAT shunchaki qayta nashrlar emas. Tadqiqotchi olimlarning sa'y-harakatlari bilan avvalgi nashrlarda yo'l qo'yilgan ko'plab xato va kamchiliklar bartaraf qilinib, mukammal matn sari katta qadam qo'yilgan. Biroq shunga qaramay, oz bo'lsa-da, ular ham ayrim mujmal va mubohasali o'rinlar uchrab turadi. Bu holat tasviriy vositalar jihatidan tahlil qilinganda ko'zga, ayniqsa, yaqqolroq tashlanadi. Xususan, "Navodir ush-shabob"dagi 330-g'azalning quyidagi bayti devonning har uchala nashrida ham quyidagi shaklda kelgan:

Ko'ngul o'ti bila zaxmin ko'rub ne rahm etkay,

O'zin chu dog'u "alif" din ayamasi ul bebok.

Baytda shunday fikr bayon qilingan: *Ko'ngil o'ti bilan zaxm* (jarohat) *ini ko'rib, nechuk rahm qilsin, Chunki u bebok* (qo'rqmas, jasur) *o'zini dog'u "alif"dan ayamaydi*. Baytning ma'nosi mavhum va tushunarsizdir, bunday talqin shoir ijodining na g'oyaviy mazmuni va na tasvir uslubiga to'g'ri keladi. Shoir uslubiga xos bosh xususiyat shundaki, baytdagi barcha tasviriy vositalar o'zaro tanosub hosil qilib, biror timsol yoki so'z ushbu qonuniyatdan chetda qolishi mumkin emas. Shuning uchun savol tug'iladiki, *ko'ngil* kimning *o'ti bilan zaxmini ko'rib, rahm qilmaydi, ul bebok* kim, nega u *o'zin dog'u "alif" din ayamaydi*, eng muhimi, misralar va ulardagi timsollar: *o't*, *zaxm* va *rahm* bilan *dog'*, *"alif"* va *bebok* o'rtasida qanday aloqadorlik bor? Bu savollarga javob topish uchun baytdagi tasviriy vositalarni nazardan o'tkazmoq darkor. Bayt tamsil san'ati asosiga qurilgan bo'lib, birinchi va ikkinchi misrada o'zaro juftlik hosil qiluvchi timsollar mavjud: *zaxm* – *dog'*, *o't* – *"alif"*, *rahm* – *bebok*. Tamsil qoidasiga ko'ra juft timsollar o'zaro yo shaklan, yoki mazmunan o'xshash bo'lishi lozim. Chunonchi, baytdagi *zaxm* va *dog'* kabi: har ikkalasi ham dumaloq. Ammo ikkinchi juftlik: *o't* va *"alif"* o'rtasida bu holat ko'zga tashlanmaydi: o'tning shakli boshqa, "alif"ning shakli boshqa. *O't*, ulug' shoirning quyidagi baytida tasvirlanganidek, yurak (ko'ngul) simon bo'ladi:

O'rtanurman kechalar hajringda andoqkim charog',

Ravshan o'yla: rishta jismimdur, *ko'ngul* – *o't*, ashk – yog'.

"Alif" esa to'g'ri chiziqqa o'xshaydi: ʼ. To'g'riligi jihatidan bir-biriga monand bo'lganligi uchun odatda yor qaddi yoki kiprigi, quyidagi baytdagidek, "alif"ga nisbat berilgan:

Jafo sarlavhida qildi "alif" mashqi ko'zung yoxud

"Alif"dek jong'a nish urmoqqa saflar chekti mujgoning.

SHoir ko'zni maktab bolasiga o'xshatadi. *Jafo* (جفا) so'zining yozilishini nazarda tutib, deydi, ko'z xat yozishni o'rganishga kirishar ekan, jafo sarlavhida "alif" mashq qildi: ʼʼʼʼ. *Lekin bilolmay qoldim*, – deydi u, – *ular ko'zlaring mashq qilgan jafo "alif"larimi yoki jonga nish urishga shaylangan kipriklarmi?* SHoir tajohuli orif san'atini qo'llab, so'z o'yini qiladi: u, avvalo, jafo sarlavhida tizilib turgan "alif"larni yorning saf tortgan kipriklariga o'xshatadi: ʼʼʼʼʼʼ, ikkinchidan esa, jon so'zining yozilishini ham nazardan qochirmaydi, chunki jon so'zida ham "alif" bor: جان. Baytda aytilishicha, kipriklar kiprik emas, balki jonga nish urish uchun saf tortgan "alif"lardir. Haqiqatan ham, agar e'tibor berilsa, "alif" jon so'zining o'rtasida bo'lib, shoir ta'kidlaganidek, ular "alif" emas, balki jonga, jonning o'rtasiga sanchilgan *nish*(nayza)lardir: جالان.

Quyidagi baytda ulug' shoir yor o'qini "alif"ga tashbeh qiladi:

Novaking tokim erur kuygan ko'ngulda mu'takif,

O'rtag'an yo sabt qilg'an dog' aro bo'lmish "alif".

Baytda shunday manzara tasvirlangan: ko'ngil kuygan va kuygan chog'da unga dog'lar tushgan, o'sha dog'larga esa yorning *novaki* – kamon o'qlari *mu'takif bo'lgan* – sanchilgan. *Yo'q*, – deydi ikkinchi misrada shoir bu fikrni rad etib, – *kuygan ko'ngilga novak sanchilgan emas, balki dog' aro "alif" "sabt bo'lgan"* – mahkam o'rnashgan. Mana, o'sha "dog'" aro sanchilgan "alif": داغ.

Baytning muhimligi shundaki, uning timsollar tizimi: "alif" – o'q – dog', ularning badiiy talqini ham dastlabki bayt bilan bir xil: "alif" ko'ngilga sanchilgan o'q bo'lsa, dog' uning jarohatlaridir. Shunday ekan, yuqoridagi baytda ham "alif"ning jufti "o't" emas, balki "o'q" bo'lishi darkor: o'q – "alif". "O'q"ning "o't" bo'lib qolishi, aftidan, kotib yoki noshirning xatosi bo'lsa kerak, chunki o't va o'q so'zlaridagi oxirgi harflar shaklan yaqin bo'lib, qo'lyozma kitoblarda ularni bir-biridan deyarli farqlab bo'lmaydi: (o't) اوت (o'q) اوق. Endi baytning mazmunini shunday bayon qilish mumkin: *Ko'ngil* (yorning "alif"sifat) *o'qiyu* (u yetkazgan dog'simon) *zaxmini ko'rib, nechuk rahm qilsin, Chunki u bebok o'zini dog'u "alif"dan ayamaydi*.

Garchi obrazlar o'rtasidagi aloqadorlik tiklangan bo'lsa ham, baytning ma'nosi, xususan, ko'ngilning rahm etishi tushunarli emas. E'tiborni keyingi juftlikka qaratamiz: *ne rahm* – *bebok*. Bebokning ma'nosi *qo'rqmas, jasur*, tasvir talabiga ko'ra *ne rahm etgay* ham shu ma'nodagi so'z bo'lishi kerak. Ma'no jihatidan ham, yozilishiga ko'ra ham bu talabga javob beradigan yagona so'z *vahm etmoq* – *qo'rqmoq*dir. U holda baytning ma'nosi bunday bo'ladi: *Ko'ngil* (yorning "alif"sifat) *o'qiyu* (u yetkazgan dog'simon) *zaxmini ko'rib, nechuk qo'rqsin, Zero, u bebok o'zini dog'u "alif"dan ayamaydi!* Yoki: *Ko'ngil o'zini dog'u "alif"dan ayamaydigan bebok*, (shunday ekan, yorning "alif"sifat) *o'qiyu* (u yetkazgan dog'simon) *zaxmini ko'rib, nechuk vahm etsin!* Ko'rinadiki, *rahm* ham, *o't* kabi, yozish yoki o'qishda yo'l qo'yilgan xato, negaki *rahm* va *vahm* so'zlari, xususan, bu so'zlardagi birinchi harflarning yozilishida ham deyarli farq yo'q: (vahm) وهم – (rahm) رحم. Demak, baytning to'g'ri shakli quyidagichadir:

Ko'ngul *o'qi* bila zaxmin ko'rub ne *vahm* etkay,

O'zin chu dog'u "alif"din ayamas ul bebok.

"Favoyid ul-kibar" devonidagi 636-g'azaldan o'rin olgan (MAT, 1990, 429-bet) quyidagi baytda ham nuqson bor:

Qomatu qoshing "alif", "nun"ekim, ul husn anidur,

Har malohat ahlikim, bor bo'lsun aning sadqasi.

Qomating bilan qoshing bir "alif"u "nun"dirki, – deydi lirik qahramon birinchi misrada o'z ma'shuqasiga, – *u husn anidur, shuning uchun malohat ahliki bor, uning sadqasi bo'lsin*. Baytda *istixroj* – harflarni bir-biri bilan qo'shib, ulardan yangi so'z chiqarish san'ati qo'llangan. Undagi ishoraga ko'ra, "alif" bilan "nun" husnning "an"idir. "Alif" bilan "nun"ni qo'shamiz: (an) اُن = (nun) ن + (alif) ا. Haqiqatan ham, "alif" bilan "nun" husnning "an"i ekan. Ammo bunday deyishga monelik qiladigan jihatlar bor. Avvalo, vazn buzilgan. Bu g'azal *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan bo'lib, ruknlari *foilotun, foilotun, foilotun, foilun*. Agar "an" deyiladigan bo'lsa, birinchi misraning oxirgi rukni *failun* (anidur), ikkinchi misraning uchinchi rukni *muftailun* (bo'lsun aning) bo'lib qoladi. Ikkinchidan ma'no chiqmaydi. "An"ga ma'nosi to'g'ri keladigan so'z "u" olmoshidir, chunki eski o'zbek tilida "u" "an" shaklida (aning, anda kabi) ham qo'llangan: "alif" bilan "nun" husnning "u"sidur (?).

"Alif" va "nun"ni "on" deb ham o'qish mumkin. Shunga ko'ra "Xazoyin ul-maoniy"ning 1960 yilgi nashri hamda TATda bu so'zlar "on" tarzida yozilgan. Lekin

“on”ning ma’nosi nima? Bir tomli “Navoiy asarlarining lug’ati”da ham, to’rt tomli “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati”da ham birgina “on” so’zi keltirilgan. Unga izoh berilishicha, bu so’z forscha bo’lib, ma’nosi *lahza, payt, vaqt*. Bu so’zni ham qo’yib ko’ramiz: “*alif*” bilan “*nun*” *husnning lahzasi, paytidur*. Demak, baytdagi “on” bu so’z ham emas. “Farhangi zaboni tojikū” – “Tojik tilining izohli lug’ati”da bu so’zning ma’nosi shunday ta’riflangan: *On* – husn-u jamol, malohat. Bu holda baytning ma’nosi quyidagicha bo’ladi: “*alif*” va “*nun*” *husnning malohatidir*. Lekin bu ham juda mos izoh emasligi sezilib turibdi, chunki husn va malohat deyarli ma’nodosh so’zlardir. Topilib qolsa degan umid bilan yana shoir asarlarining o’ziga murojaat qilamiz. Bu jihatdan “G’aroyib us-sig’ar” devonidagi quyidagi bayt (188-g’azal) diqqatni o’ziga tortadi:

Bormudur ko’nglumda keskan ham “*alif*”, ham na’lu dog’,

Yo bu mir’ot ichra solg’an aks husnung onidur.

Ey yor, ko’ngilimda sen kesgan “alif”, “na’l” va “dog” bor, – deydi jafokash oshiq birinchi misrada. U “*alif*” deganda yor qaddi, “*na’l*” (“*nun*” shaklidagi tamg’a) deganda qoshi, “*dog*” deganda esa nuqtadek xolini nazarda tutadi. Shoir tajohuli orif – bila turib, o’zini bilmaslikka solish san’atidan foydalanib, o’z fikrini shunday shaklda ifoda qiladi: *Ey yor, bilmay qoldim, ko’ngilimda kesilganlar haqiqatan ham “alif”, “na’l” va “dog”mi yoki bu ko’zgudagi husning aksining “on”larimi?* Ko’rinib turibdiki, “on” so’zi “*jilva*” ma’nosida kelgan. Chunki ko’ngil ko’zgusidagi aks faqat yor husnining *jilvasigina* bo’lishi mumkin. Shoir savolini yorga havola qilgan bo’lsa-da, baytda o’z savoliga o’zi javob ham bergan: “*ko’ngilda kesgan*” “*alif*”, “*na’l*”, “*dog*”, bir tarafdin, haqiqatan ham, “*alif*”, “*na’l*” va “*dog*”, ikkinchi tarafdin esa, “*ko’ngil mir’oti*” – ko’ngil ko’zgusi ichra aks etgan husn “on”i – *jilvasi* hamdir. Husnning bu *jilvalarini* bir-biriga qo’shamiz: “*alif*+*na’l*” (“*nun*”) +*dog*’ (“*nuqta*”) = on // ئ = ’ + ٰ + ل. Yuqoridagi baytga qaytib, “on” o’rniga “*jilva*” so’zini qo’yib ko’rganda ma’lum bo’ladiki, birinchi misrada shunday fikr ifodalangan ekan: *Qomating bilan qoshing shunday “alif” va “nun”dirki, u husn “on”i – jilvasidir*. Endi ikkinchi misraning mazmunini tushunish unchalik ham qiyinchilik tug’dirmaydi: *Har qancha malohat ahli bo’lsa, “on”ing, ya’ni husning jilvasining sadqasi bo’lsin*. Biroq “on” bilan bog’liq san’atkorlik *istixroj* bilangina tugagan emas, ulug’ shoir ikkinchi misrada “on” so’zining o’zbekcha “u” ma’nosini ham nazarda tutib, iychom san’atining ham juda nozik namunasi yaratgan: *Har qancha malohat ahli bo’lsa, “o”ning – uning, ya’ni qomatu qoshingning sadqasi bo’lsin*.

“An” 1960 yilgi nashr hamda TATda “on” shaklida yozilgan. Demak, ayrim imlo va ishora xatolarni hisobga olmaganda, baytning bu nashrlardagi ko’rinishi to’g’ridir:

Qomatu qoshing “*alif*”, “*nun*”ekim, ul husn onidur,

Har malohat ahlikim bor, bo’lsun oning sadqasi.

Ammo, shunday bo’lsa-da, “G’aroyib us-sig’ar”dagi 442-g’azalning quyidagi bayti, MAT va TATda to’g’ri bo’lgani holda, 1959 yilgi nashrda xato ketgan:

Yoshurun husnungda bir “on”dururkim, jon aro,

Ham “*alif*”, ham na’l uza dog’im erur *andin* nishon.

Chalkash, mubohasali o’rinlardan yana biri “Farhod va Shirin” dostonidagi 54-bob sarlavhasidir. 1960 yilda nashr qilingan “Xamsa”da mazkur sarlavha shunday shaklda kelgan: *Bu noma itmomig’a xoma tuzmakdin taronasozlig’ va bu hangoma ixtitomida sa’y ko’rguzmakdin fasonapardozlig’ va bashariyat iqtizosi bila hadsiz lof zohir qilmoqdinkim, o’z nafiig’a “lo”durur – uyolmoq va yarim uchug da’vo ko’rguzmakdinkim, o’z man’ig’a “da”durur – xijolatqa qolmoq va bedilona ajzg’a tushmakdin g’oyatsiz izzat ko’rmoq va dilso’xtavor faqr ko’rguzmak bila nihoyatsiz farah*

topmoq, *“Alhamdu lillohil-lazi vaffaqani min iftitohihi ilo ixtimomihi; va sallalohu alayhi va olihi va ashobi kiromihi”*.

Mazkur bobda shoir faxriya usulini ishga solib, o‘z betakror iste’dodini quyoshga tenglashtiradi, ammo lahza o‘tmay, ularni lof-u gazof – behuda, asossiz so‘zlar deb ataydi. Shoirning benihoya kamtarlik bilan ta’kidlashicha, aslida u qaro tuproqdan ham pastroq, ammo bir tuproqki, ajzu faqr gullaridan fayzyob bo‘lgan. Shoir sarlavhada bu kechinmalarini muammo san’ati bilan ifoda etadi. Uning uqtirishicha, o‘z yuksak shoirlik qobiliyati haqidagi so‘zlar *hadsiz lof bo‘lib, hadsiz lof zohir qilmoq bashariyat iqtizosi* – insoniylik taqozosi *biladir*. Bu juda uyatli hol. Chunki *hadsiz* (cheksiz, chegarasiz) *lofdan* nafaqat shoir, balki lofning o‘zi ham xijolat bo‘lib, uning *fasonapardozligini* (balandparvoz so‘zlarini) *nafy* (rad) etadi: **“lo”** – *yo‘q, bunday emas! Hadsiz lof* muammo bo‘lib, uning **“lo”** deb turishida chuqur ma’no va betakror san’atkorlik bor. *Had* so‘zi lofning miqdori bilan birga, yozilishiga ham ishoradir: لاف. Lofning haddi, ya’ni chegarasi **“f”** – ف harfi. Agar u *hadsiz*, ya’ni **“f”** – ف harfisiz zohir bo‘lsa, undan **“lo”** – لا qoladiki, bu *hadsiz lof* shoir zohir qilgan **o‘z, balki o‘zlik nafiig‘a “lo”durur**: لا – *yo‘q, bunday emas!*

Keyingi jumla ham bu fikrning davomidir: *yarim uchuq da’vo ko’rguzmakdinkim, o‘z man’ig‘a “da”durur – xijolatqa qolmoq*. Shoirning ta’kidlashicha, agar *hadsiz lof zohir qilmoq bashariyat* (insoniylik) – *o‘zlik* taqozosi bilan bo‘lgan bo‘lsa, **da’vo ko’rguzmak – yarim uchuq**. Ana shu yerda mubhamlik bor: *yarim uchuq*. *Yarimning* lug‘aviy ma’nosi tushunarli, ammo *uchuq-chi?* Har holda, uning betoblik chog‘i lab atrofiga toshadigan kichkina yara emasligi aniq. “Navoiy asarlarining lug‘ati”da bu so‘z uchramaydi. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da esa *ozgina* deb izohlanib, isbot tariqasida biz tahlil qilayotgan jumla keltirilgan: ...yarim uchuq da’vo ko’rguzmak, 216 (?) -sarl. Ammo bu izoh to‘g‘ri kelmaydi, chunki, avvalo, *yarim* so‘zida ham *ozgina* degan ma’no bor, ikkinchidan, shoir jumlada da’voning miqdori haqida so‘z yuritayotgani yo‘q: *yarim ozgina da’vo*. *Uchuq* so‘zining bundan boshqa ma’nolari berilmagan, demak, uning bu o‘rinda kelishi xatodir. TATning 6-jildida u quyidagi tarzda kelgan: *yarimchuq da’vo ko’rguzmak*. *Yarimchuq* degan so‘z “Navoiy asarlarining lug‘ati”da ham, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da ham, shuningdek, “Xamsa”ning o‘zida ham uchramaydi. Faqat bir o‘rinda – “Navodir ush-shabob” devonidagi 323-g‘azalning 6-baytidagina istifoda etilgan, xolos:

Yarimchuq pashsha nishi bila ojiz qilursen,

Nechakim pil yanglig‘ qaviydur xasmi bebok.

Namrud xudolik da’vosini qilganda, Alloh uning boshiga bir cho‘loq pashshani joylab qo‘yadi. Pashsha uning miyasiga nish sanchib, kechayu kunduz tinimsiz azob berar, Namrud boshiga to‘qmoq bilan urdirar, har to‘qmoq urilganda, pashsha tinchib, uning joni bir lahza orom olar edi. Oxir oqibat bu zolim podsho to‘qmoq zarbidan halok bo‘ladi. Baytda ana shu pashshaga ishora qilingan. Ma’lum bo‘ladiki, *yarimchuq* so‘zining ma’nosi *cho‘loq* yoki *yarimta*. Ammo so‘zning bu shaklini ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi, chunki *da’vo* yo‘q narsani bor demoq bo‘lib, uning yarimta bo‘lishi mumkin emas: *yarimchuq* (yarimta) *da’vo ko’rguzmak*.

So‘zning to‘g‘ri shaklini aniqlash uchun, avvalo, har ikki nashrda ham bir xil yozilgan *yarim* so‘zining shoir nazarda tutgan ma’nolarini nazardan o‘tkazmoq darkor. Zotan, u lug‘aviy ma’nosidan tashqari, istilohiy ma’noga ham ega. Ulug‘ shoir garchi tasavvuf ta’limotida yetakchi bo‘lgan *kamol kasb etmoq* g‘oyasiga izdoshlik qilgan bo‘lsa ham, bu g‘oyaning hosilasi bo‘lgan *komil inson* atamasini o‘z asarlarida istifoda

etgan emas. Uning o'rnida asar mavzusi bilan bog'liq tarzda xilma-xil: ishqiy asarlarda *oshiq*, may mavzuidagi she'rlarda *rind* yoki *devona*, ma'rifat haqida so'z yuritganda *orif*, shohlik haqida so'zlaganda *gado* yoki *darvesh*, molu mulk tasvirida esa *faqir* mafhumlarini keltirgan. Ular orasida *tamom kishi* degan ibora ham bor. *Tamom* so'zining istilohiy ma'nosi *yetuk*, *butun*, *komil* bo'lib, *tamom kishi* boshqa istilohlardan farqli o'laroq, ko'proq mavjud insonlarga nisbatan qo'llangan. "Nasoyim ul-muhabbat"da Sayyid Hasan Ardasher haqida so'zlar ekan, shoir shunday deb yozadi: "Bu haqir faqr tariqida va fano joddasida alardek *tamom kishi* oz ko'rubmen". *Tamom* istilohining ziddi *notamom*. "Kamol et kasbkim, olam uyidin" deb boshlanuvchi mashhur qit'ada *notamom* so'zi shu ma'noda kelgan:

Jahondin *notamom* o'tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Notamomlik kishining bashariy illat va nuqsonlar changalida qolib ketishidir. SHoir bu holatni *o'z* yoki *o'zlik* deb atagani ma'lum. *Tamom kishiga* aylanmoq uchun *o'zlikni foniy* qilib, ilohiy fazilatlar sohibiga aylanmoq lozim. *Jahondin notamom o'tmak*, qit'ada aytilganidek, hammomga kirib, yuvinmay chiqish bilan barobar. SHoir ijodida *notamom* istilohining o'zbekcha ko'rinishi ham bor. "Nasoyim ul-muhabbat"da Abdulloh ibn Manozil ismli shayx bobida u shunday deb yozadi: "To'rtunchi tabaqadindur. Mashoyixdin biri debdurki, men bu qavmdin bir *tamom kishi* va bir *yarim kishi* tanirmen. *Yarim kishi* Nasroboddurki, hech kimni yamonlig' bila yod qilmag'ay. Va bir *tamom kishi* Abdulloh Manozildurkim, hech kishini xud yod qilmag'ay". Demak, *yarim notamomning* o'zbekcha ma'nodoshidir.

Yarim so'zining mazkur ma'nosi jumlar qurilishida ham o'z aksini topgan. Ikki jumla bir-biriga mos tushuvchi bir necha mutanosib bo'laklardan tashkil topgan: *bashariyat iqtizosi bila* – *yarim uchug*; *lof zohir qilmoq* – *da'vo ko'rguzmak*; *o'z nafi'ig'a* "lo"durur – *o'z man'ig'a* "da"durur; *uyolmoq* – *xijolatqa qolmoq*. Bu bo'laklar nafaqat stilistik, balki mazmuniy jihatdan ham bir-biriga monanddir. Jumladan, *bashariyat* – *yarim*. *Bashariylik yarim kishiga* xos illat ekanligini ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak. SHoir *hadsiz lof zohir qilmoqni bashariyat iqtizosi bila* deb izohlaydi. *Iqtizosi bila* iborasi sabab-natija ma'nosini bildirgan, unga teng keladigan so'z *sababli: bashariyat* yoki *bashariy noqislik sababli*. Bundan *uchugning* ham qanday so'z ekanligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi: albatta, *uchun*! Chunki bu o'rinda ma'no jihatidan ham, yozilish jihatidan ham bundan boshqa so'z bo'lishi mumkin emas: *yarim uchun* (sabab-natija: *yarim uchun da'vo ko'rguzmak*; yozilishi: (uchug) اوچوق = (uchun) اوچون). Demak, matnshunoslarning bir necha avlodini chalkashtirgan xatolik kotibning aybi va *yarim* so'zining istilohiy ma'nosidan bexabarlik oqibatida yuzaga kelgan.

Ushbu so'z MATda keltirilgan sarlavhada *uchun* deb yozilgan bo'lsa-da, ammo mundarijada yana *uchugqa* aylanib qolgan.

Endi jumladagi muammoni ham yechish mumkin. "Yarim" istilohiy ma'no anglatishdan tashqari, *da'vo* so'zi bilan ham aloqadordir: *yarim uchun da'vo ko'rguzmak*. Bu iborani *da'voning yarmisi* deb ham tushunish mumkin. *Da'vo* so'zi quyidagicha yoziladi: دعوى. Uning yarmisi دع – "da" bo'ladi. "Da" tashla, yo'q qil deganidir. "Da", bir tarafdin, muammoni yechishga ishora bo'lsa, ikkinchi tarafdin, da'vo qilmaslikka, *yarim kishiga* xos bo'lgan bu illatni tashlashga da'vatdir. Bu da'vat go'yoki *da'vo* tilidan yangragandek bo'ladi, shu sababli shoir cheksiz xijolat ichida qoladi: *yarim uchun da'vo ko'rguzmakdinkim, o'z man'ig'a* "da"durur – *xijolatqa qolmoq*!

Xulosa qilib aytish mumkinki, Navoiy asarlarida, bir tarafdin, xilma-xil tasviriy vositalar, ikkinchi tarafdin esa, g'oyaviy mazmun va muayyan istilohiy iboralar o'rtasida mustahkam va barqaror aloqadorlik mavjud. Ayrim bayt va misralarning mazmunini aniqlashda bu jihatlarni ham albatta hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1990.
2. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1990.
3. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 5-том. – Тошкент: Фан, 1990.
4. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7-том. – Тошкент: Фан, 1991.
5. Алишер Навоий: Қомусий луғат. Биринчи жилд. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2016.
6. Имомназаров М. Қўнгил ҳақида тўрт дoston шарҳи. // Шарқ машъали, 2016, №1.
7. Миръоти ушшоқ. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, ГРВЛ, 1965.
8. Очилов Э. Қўнгил – Каъбадан улуг / Бир ҳовуч дур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
9. Салахутдинова Д. “Бадойиъ ул-бидоя” девони ва бадий санъаткорлик масалалари, НД. – Самарқанд, 1993.

ABDULLA QODIRIY ROMANLARIDA ALISHER NAVOIYGA IZDOSHLIK MASALALARI XUSUSIDA

Muqaddas TOJIBOYEVA

Andijon davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. *Jadid yozuvchilarining diqqat markazidagi bosh masala o'tmish o'zbek nasri an'alarini chuqur o'rganish, o'zlashtirish va ulardan unumli foydalanish zaruriyati bo'lgan. Bu davrda yaratilgan aksariyat yirik epik asarlar, xususan, A.Qodiriyning “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari tarixiy faktik materiallar qobig'idagina o'ralashib qolmay, asarda voqealarni jonli va emotsional ravishda yuqori pafosda aks ettirish, go'zallik va ezgulik nuqtayi nazaridan voqea-hodisalarga baho berish maqsadida mumtoz nasr an'alariga, xususan, Alisher Navoiy asarlariga tayangan holda badiiy to'qima timsollar va to'qima voqealar yaratilgan.*

Kalit so'zlar: *mumtoz nasr, jadida adabiyotida romanchilik, mumtoz an'ana, izdoshlik, o'ziga xoslik, xalq og'zaki ijodi.*

Abstract. *The main issue in the focus of Jadid writers was the need to deeply study, master and use the traditions of past Uzbek prose. Most of the major epic works created during this period, in particular, A. Kadiri's novels "Bygone Days" and "The Scorpion from the Altar", were not confined to the shell of historical factual materials, but rather, in order to reflect events in the work with high pathos, vividly and emotionally, and to evaluate events from the point of view of beauty and virtue, artistic woven images and woven events were created, relying on the traditions of classical prose, in particular, the works of Alisher Navoi.*

Keywords: *classical prose, novelism in Jadid literature, classical tradition, continuity, originality, folk oral creativity.*

XX asr o'zbek adabiyoti o'z taraqqiyotida romanning janr sifatida o'z mavqeini topganligi bilan o'ziga xos yuqori pog'onaga ko'tarildi. Bu jiddiy yuksalishning negizida Abdulla Qodiriy romanlari bo'y ko'rsatadi. Qodiriy ijodiyotining o'ziga xos abadiyatini

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBLOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622